

FRAZEOLOGIK LAKUNAR BIRLIKLAR (ABDULLA QODIRIY ASARLARI
MISOLIDA)**Shaxlo Baxodirovna Baxodirova**

Chirchiq Pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Shaxlo.bakhodirova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada frazeologik birliklar haqida mulohaza yuritilgan. Abdulla Qodiriyning asarlaridan lakunar frazemalarga misollar keltirilgan va ularning semantikasi xususida fikr yuritilgan. Lakunar frazemalarga misollar keltirishda “Diyori bakir”, “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” asarlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Lakunar birlik, frazema, adabiy shakl, dialektal so‘z, portret, peyzaj.

Abstract: The article discusses phraseological units. Examples of lacunar phrases are given from the works of Abdulla Qadiri and their semantics are discussed. In giving examples of lacunar phrases, the works "Diyori Bakir", "Gone Days" and "Scorpion from the Altar" were analyzed.

Key words: lacunar unit, phrase, literary form, dialectal word, portrait, landscape.

Аннотация: В статье рассматриваются фразеологические единицы. Приводятся примеры лакунарных словосочетаний из произведений Абдуллы Кадири и обсуждается их семантика. В качестве примеров лакунарных словосочетаний были проанализированы произведения «Диёри Бакир», «Ўтган кунлар» и «Меҳробдан чаён».

Ключевые слова: лакунарная единица, словосочетание, литературная форма, диалектное слово, портрет, пейзаж.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikning til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarini o‘rganuvchi dolzarb masalalaridan biri – bu madaniyatlararo kommunikatsiya hisoblanadi. Bu esa, ko‘pincha, kommunikatsiya jarayonida o‘zaro aloqaga kirishuvchi tomonlarning milliy-madaniy o‘ziga xosligi bilan bog‘liq.

Mamlakatimizda davlat tilini rivojlantirish, shuningdek oliy ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish singari dolzarb vazifalar, ayni paytda, o‘zbek tilining lug‘at fondi, leksikasi hamda terminologiyasini rivojlantirishni taqozo etadi.

Hozirgi o‘zbek tili bilan bog‘liq tadqiqotlarning aksariyatida tahlilga tortilgan materialning manbai o‘zbek yozuvchilarining asarlaridir. Tilning holati, undagi xilma-xil hodisalar, qonun-qoidalarni tavsiflovchi darslik va boshqa o‘quv qo‘llanmalarda ham asosiy faktik material badiiy asarlardan olinadi. O‘zbek tilining muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo‘lgan xususiyatlari, grammatik o‘zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o‘zbek tilida yaratilgan ilk roman tilini dialektik, semantik tahlil qilishni taqozo etadi. Ma‘lumki, Abdulla Qodiriy romanlari tili o‘zbek tilining o‘ziga xos milliy xususiyatlarni aks ettirgan bo‘lib, roman matni bugungi kunda o‘zbek tili birliklaridagi o‘zgarishlar, evrilishlar, rivojlanishlarning eng xolis ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda lakunalar, asoslan, til va tarjima sohasida sodir bo‘layotgan muammoli vaziyatlarni to‘ldirishga doir tadqiqotlar yig‘indisi deb qaraladi. Ba’zi matnlarda ikki til o‘rtasidagi tarjima jarayonida so‘zlarni qo‘llashda odamlarning xatolariga olib keladi. Bir til ichida lakunalar, odatda tarjima va tafsir jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchilarning

maqsadi, matn yoki soʻzning toʻgʻri va toʻliq tarjima boʻlishi uchun kerakli boʻsh joylarni aniqlashdir. Bu matnni oʻqish, soʻz yoki ifodalarni tushunish va maʼnoni toʻliq va toʻgʻri targʻib etish jarayonida muhimdir.

Umuman tilning, uning adabiy shaklining ham shakllanishi bevosita umumisteʼmoldagi va keng ommaga tushunarli soʻzlardan tashkil topishi¹, birinchi navbatda, millat vakillarining soʻzlashuv (muloqot, suhbat) jarayonini optimallashtirish (qulaylashtirish) ehtiyojidan yuzaga keladi. Demakki, bu oʻrinda soʻzlashuv uslubiga xos birliklarni, ularning shakllanish va ommalashish xususiyatlarini eʼtiborga olmasdan turib, tilning adabiy shakli, meʼyoriy xususiyatlarini tavsiflash mumkin emas. Ammo, soʻzlashuv nutqi “koʻcha tili” sifatida juda oʻzgaruvchan, individual va jamoaviylik xususiyatlari bilan farqlanuvchi juda murakkab jarayonlar tizmasidir. Uning biron ixtiyoriy koʻrinishini tahlilga tortish va oʻrganishda ham muayyan mezonlarga amal qilish talab etiladi.

Shuningdek, biror dialektida uchragan soʻzni shu dialektga xos, soʻzlashuv tilida uchragan soʻzni soʻzlashuvga xos deb qarash hamma vaqt toʻgʻri boʻlavermasligini² taʼkidlash joiz. Zero, muayyan soʻzlashuv jarayonida qoʻllanilgan soʻz biror dialektga xos boʻlishidan tashqari muayyan folklor yoki yozma manbalarda ham uchrashi mumkin. Bu kabi xususiyatlar “yangi”, okkazional, individual boʻlmagan aksariyat dialektizmlar uchun xos xususiyatdir. Shunday ekan, folklorizm, dialektizm yoki soʻzlashuvga xos deb qaralayotgan soʻzning asl manbalari va etimologiyasining nisbiy boʻlishi, ular orasidagi chegaraning mavhumligi, oʻzaro integral xususiyatlar kasb etishi ham muayyan tadqiq obyekti sifatida tanlangan mazkur soʻzlarga maqsadga muvofiq yondashishni taqozo etadi.

Tilning reprezentativ (kuzatishning imkoni boʻlgan) xususiyatlarini oʻrganishda aksar hollarda badiiy asarlarga murojaat qilinadi. Chunki badiiy nutq nisbatan meʼyoriy va nutqning turli koʻrinishlarini oʻzida mujassamlashtiradigan tipik shakldir. Shuningdek, unda dialektizmlarni qoʻllash imkoniyatining mavjudligi bizning tadqiqotda ham undan bemalol foydalanish imkoniyatini beradi.

Tildagi lakunalarning dialektizmlar bilan toʻldirilishida badiiy adabiyot vakillarining katta hissi bor. “Dialektal soʻz, soʻz formalari va ifodalarning umummilliy adabiy tilga oʻtishida yozma asarlar, ayniqsa, badiiy adabiyot katta oʻrin tutadi”³. Dialektizmlarning tilshunoslar tomonidan saralanib, adabiy meʼyor sifatida tavsiya etilishiga nisbatan adabiy asarlar orqali adabiy norma darajasiga koʻtarilgan dialektizmlar salmogʻi yuqori ekanligi ham mazkur usulning nisbatan mahsuldorligini tavsiflaydi.

Frazema lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismida mavjud ramzga teng; frazemadan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi. Frazema lisoniy birlik sifatida qismga teng boʻladi; maʼlum grammatik belgi-xususiyatlar qoʻshilgandan keyin-gina butunga aylanadi va nutqda ishlatiladi; keyingi holatida frazema nutqiy birlikka teng boʻladi, frazemashakl deyiladi.

Lisoniy birlik sifatida frazema ikki jihatning - ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat⁴.

¹ Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевадар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Т.: Фан, 2002. – Б. 112.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғатини тузиш учун қўлланма. – Т.: Фан, 1964. – Б. 9.

³ Ақобиров С. Изоҳли луғат ва нутқ маданияти // “Ўзбек тили нутқ маданиятига оид масалалар” тўплами. – Т., Фан, 1973. – Б. 186.

⁴ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili (darslik). Toshkent – 700174. "Universitet" nashriyoti.- 2006 y. 420 b.

Abdulla Qodiriyning asarlaridagi lakunalar va frazemalar, uning adabiyotida xususiy ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy elementlardir. Bu frazemalar, odatda uning dostonlarida voqealarga va personajlarga xos bo'lishi mumkin. Bu frazemalar uning asarlarida madaniy muhitning o'zgacha usullari uchun ahamiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Frazeologizmning semantik tuzilishi (ma'no imkoniyatlari) frazeologik ma'no (barqaror birikma asosida ifodalanadigan axborot) va qo'shimcha ma'no bo'yoqdorligidan iborat bo'ladi. Belgi, harakat kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot frazeologik ma'no deyiladi. Frazeologik ma'no obrazlilik bilan leksik ma'nodan farq qiladi⁵.

Abdulla Qodiriy tarixiy frazemalardan ham mohirona foydalanadiki, uning ilm doirasi naqadar keng bo'lganiga yana bir bor amin bo'lamiz. "...militaning go'ristonliqdan ushlab chiqaturg'on tuppa-tuzuk odamshavanda sochi taralg'an, dumi yuluq, qip-qizil barkashdakkina yuzlik sun'iy afandixon hazratlari bilan o'zini firavn qizi bilgan dilbarxon...larni!.." keltirilgan jumlada firavn qizi iborasi qo'llangan. Firavn qizi- rivoyat qilishlaricha, payg'ambar Muso alayhissalom Misr podshosi firavnni "Allohga imon keltir, kofirlikni qo'y", deb ko'p marta islomga da'vat qiladi. Ammo firavn har gal "Men o'zim xudoman, yer-u ko'kni men yaratdim, haloyiq mening hukmimda", deb kibrlanadi, nayrang qiladi. Oxir-oqibat Alloh taolo Firavnni shakkokligi uchun askarlari bilan birga daryoga g'arq qiladi. Bu yerda muallif marja(rus ayol)larning kibrlanishini Firavnni qiziga o'xshataydi ("Nafsi shayton" (Hangama) 98-100 betlar).

O'sha davr nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, hali Yevropa madaniyati endi kirib kelayotgan payt edi. Shu sababli yangi kirib kelgan Yevropa liboslari odamlarda unchalik ham ijobiy taassurot uyg'otmayotgan edi. Shu sababli o'sha davr uchun katta yangilik hisoblangan zamonaviy liboslarga nisbatan ko'proq salbiy iboralar qo'llanar edi. Masalan, dumi qopqonda qolg'anlar- kiyimi qopqonga tushib yulini qolganlar, ya'ni kalta kiyingan zamonaviylar. Bu ibora erkaklar va ayollarga birdek qo'llangan. "Ikkinchi tomondan ikkita dumi qopqonda qolg'anlar ko'zlarini to'latib-to'latib qaraydirlar-da..." ("D.B." 118-120 betlar). Biz bu ibora orqali o'sha davr insonlari dunyoqarashi, zamonaviy liboslarga berilgan baho haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Hozirgi kunda ham noodatiy kiyingan insonlarni ba'zan uchratib turamiz. Ya'ni bizning millatimizga, ijtimoiy muhitimizga mos kelmaydigan zamonaviy (yoki o'ta diniy) liboslarni uchratib turamiz. Ammo hozirgi adabiy nutqimizda bunday noodatiy kiyingan insonlarga nisbatan qo'llanuvchi ibora topish biroz mushkul.

Almisogdan qolgan iborasi hozirgi kunda ham uchrab turadi. Yozuvchi bu iborani quyidagi ma'noda qo'llaydi. Almisog- Alloh taolo ruhlardan ahdu paymon olgan kun, o'zini va farishtalarini tan olgan ruhlar musulmon, olmaganlari kofir bo'lgan kun. "Chunonchi bu bir juft baytning ma'xazini(manba) tekshirsak, tarixning quloq-quloq ichkarisiga kirib ketamiz; varaq-varaq tarix hamoqat va shaqovatidan(baxtsizlik) o'quy-o'quy nihoyat hazrat odamga, nihoyat almisogga borub yetamiz" ("Tavakkaltu allohu"ni degan yer na talqonu na qalqonning g'amin yer ("D.B." 145-146 bet). Hozirgi kunda adabiy nutqimizda bunday holat uchun yana odam ato davridan qolgan yoki otamni davridan qolgan iboralari ham qo'llanadi.

Yana bir frazema izohiga to'xtalsak, tancha ko'rpani issig'lab berish- yugurdaklik, xizmatkorlik; laganbardorlik ("D.B." 124-128 betlar). Demak, laganbardor insonlarga nisbatan shu ibora qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. "Mahkamai shar'iyaning raisi Zahiriddin a'lam falonchi,

⁵ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at /- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 8 bet.

*pistonchi domlalar*ga *tancha ko'rpani issig'lab berib, o'zi tomosha qilub o'tursun!*" Hozirgi kunda bunday holatga nisbatan xalq tilida *"paxta qo'yish, padxod qilish"* kabi iboralar qo'llanadi.

Sovutmachiq dasturxon-naridan-beri tayyorlangan, supta dasturxon("O'.K." 179-b 1 ta). Bu tasvirida yozuvchi yoyilgan dasturxonning yengil-yelpi tuzalganiga ishora qiladi va mana shunday chiroyli ibora bilan tasvirlaydi. *"O'n chog'liq xotin bo'lishib sovutmachiq dasturxonga o'turishdilar."*

Puk berish- bildirib qo'yish, oshkor qilish ("O'.K." 130-b. 1 ta) hozirgi so'zlashuv nutqimizda bunday holatga nisbatan ko'proq *shipshitib qo'yish, bildirib qo'yish, uchini chiqarish* kabi iboralar ishlatiladi. *"— Avvalo so'zlamayturg'an bo'lg'andan so'ng puk berish kerak emas, tildan ilingandan keyin bizga zarurati bo'lmasa ham bilganni aytish kerak, — dedi usta Alim."* Hozirgi kunda bu ibora nutqimizdan chiqib ketgan bo'lsa-da, yozuvchi asari ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Abdulla Qodiriyning kichik asarlari to'plami *"Diyori bakr"* deb nomlangan bo'lib, bu iborani kichik asarlarining birida qo'llab o'tganini ko'rishimiz mumkin. *Diyori bakr*- qo'l tegizilmagan, buzilmagan mamlakat. *"Ham siz o'qug'uchidan besh-o'n kunga uzoqlashib turishni bo'ynimg'a olib diyori bakrdan qo'zg'aldim"*. Aytib o'tganimizdek, Qodiriy malaka uchun Moskvaga borgan edi. Toshpo'lad aka, Kalvak tog'aning ba'zi hikoyalari o'sha yerdan yo'llab turilgan edi. Bu yerda muallif o'qish tufayli yurtdan biroz uzoqlashib turganini eslatib o'tyapdi ("D.B." 276-b.).

Frazeologik ma'no o'ziga xos semantik taraqqiyot jarayonini aks ettiradi. Bunda nafaqat frazeologik ma'no, balki leksema semantikasiga oid ma'no taraqqiyotini ham kuzatish imkoniyati yuzaga keladi⁶.

Yovvoyi chiqim- turli nalog va poralar ya'ni hozirgi kundagi kammunal to'lov va soliq to'lovlari kabi. *"Tag'in bu hunarning yovvoyi chiqimlari ham behisob, deb eshitkanim bor."* ("D.B." 221-225). Yozuvchi asarida qo'llagan bu ibora bugungi kun adabiy nutqimizda asosan *ortiqcha chiqimlar* tarzida qo'llaniladi. Lekin bu holatga mos ravishda qo'llanuvchi ibora hozirgi adabiy nutqimizda mavjud emas.

Abdulla Qodiriyning "O'tgan Kunlar" romani portretlar va peyzajlar tasvirlarini juda tajribali va ma'naviy uslub bilan ifodalaydi. U romanda jismoniy, ruhiy xususiyatlar, ashyo, rang, yorqinlik va murakkablikni ifodalash uchun murakkab iboralar va tavsiflar ishlatadi. Quyidagi misollar Abdulla Qodiriy asarlaridagi portret va peyzaj tasvirlaridan foydalanish usullarini namoyish etadi:

Qodiriy jismoniy xususiyatlar, kiyim-kechak, soch-soqol va boshqa jismoniy nuqtai nazarlarni tavsiflashda murakkab tavsiflar ishlatadi. Misol uchun, *"Bo'yni g'avs"* (bo'yni yo'g'on, mansabdor), *"To'ppim arava"* (do'ppini chakkaga qo'yib qiyshaytirib kiyish), *"Peshtaham yoki koski"* (og'zi buzuq), *"Dumsiz"* (kalta kiyingan), *"Siymintan"* (kumush tanli, oq tanli), *"Shilingpocha"* (oyog'i ochiq), *"Ramaqijon"* (juda ozgan, to'zgan), *"Sebi zanaxdon"* (baqbaqa -tana a'zosi), *"Mavzun"* (benuqson, xushbichim), *"Rind"* (nozik, sinchkov), *"Yasamol"* (yasangan, bezangan), *"Ozshaloq"* (misli ozshaloq-satang ayollar kabi), *"Sartopo"* (boshdan-oyoq), *"Ixna"* (sirtqi ko'rinishiga e'tibor bermovchi), *"Sho'x mashrab"* (tabiati sho'x, o'ynoqi) va hokazo. Bu tavsiflar barcha personajlar portretlarini chiroyli va yorqin ko'rinishda tasvirlaydi.

⁶ Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at /- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 10 bet.

Shunday qilib, Abdulla Qodiriy o'z asarlarida portret va peyzaj tasvirlarini o'zining tajribali va ma'naviy uslubi bilan aniq va murakkab iboralar bilan ifodalaydi, bu esa uning adiblik mahorat va romandagi jismoniy xususiyatlar, tabiatning turli ashyolarini samarali ko'rsatish uchun muhimdir.

Bu misollar Abdulla Qodiriyning asarlari, xususan "Mehrobdan Chayon", "O'tgan kunlar", "Diyori bakir" romani va to'plamlarida qanday iboralar va mazmunlardan foydalanganini ko'rsatish uchun yordam beradi. Uning so'zlashuvlarida iboralar o'zining asarlarining aniq, mazmundorligi va ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ilovasiz aks ettiradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" [Matn]: roman / A. Qodiriy. – Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 328 b
2. Abdulla Qodiriy "Diyori bakir" kichik asarlar to'plami. "Yangi asr avlodi", 2007-y. 469-b.
3. Абдулла Кодирый. "Ўткан кунлар" роман. www.ziyouz.com. Kutubxonasi 2007- 220 б.
4. Ақобиров С. Изоҳли луғат ва нутқ маданияти // "Ўзбек тили нутқ маданиятига оид масалалар" тўплами. – Т., Фан, 1973. – Б. 186.
5. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевадар лексикасининг қийсий тадқиқи. – Т.: Фан, 2002. – Б. 112.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғатини тузиш учун қўлланма. – Т.: Фан, 1964. – Б. 9.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). Toshkent – 700174. "Universitet" nashriyoti.- 2006 y. 420 b.
8. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O'razova I., Rixsiyeva K. O'zbek tili frazeologik lug'ati [Matn] : lug'at /– Т.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 bet.